

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **94 510,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda **13,0** % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan **106,3** % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi **21,1** % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	78 727,6	94 510,1	113,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	72 236,4	86 806,8	112,9
mahsulotlarga sof soliqlar	6 491,2	7 703,3	113,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	72 236,4	86 806,8	112,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21 844,5	25 265,1	107,7
sanoat	15 836,3	18 103,9	107,1
qurilish	6 008,2	7 161,2	109,3
xizmatlar	50 391,9	61 541,7	115,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16 046,1	20 274,8	119,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	13 428,1	16 809,6	117,8
boshqa xizmat tarmoqlari	20 917,7	24 457,3	110,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **29 654,9** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **10,6 %** ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)






yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,8	91,8
mahsulotlarga sof soliqlar	8,2	8,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,2	29,1
sanoat	21,9	20,9
qurilish	8,3	8,2
xizmatlar	69,8	70,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22,2	23,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	18,6	19,4
boshqa xizmat tarmoqlari	29,0	28,1

2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **91,8 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **8,2 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi **20,9 %** ni, qurilish **8,2 %** ni va xizmatlar sohasi **70,9 %** ni tashkil qildi.


yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – **1,4 f.p.** (2025- yilning yanvar-martida – **1,1 f.p.**), qurilish tarmog'i – **0,7 f.p.** (2025- yilning yanvar-martida – **1,7 f.p.**) va xizmat ko'rsatish sohasi – **9,7 f.p.** (2025- yilning yanvar-martida – **6,1 f.p.**) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM **1,2 f.p.** (2025- yilning yanvar-martida – **1,0 f.p.**)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – **107,1 %** (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – **20,9 %**), qurilishda – **109,3 %** (**8,2 %**), xizmatlar sohasida – **115,1 %** ni (**70,9 %**) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **119,4 %** (**23,4 %**), tashish va saqlash, axborot va aloqa **117,8 %** (**19,4 %**), boshqa xizmat tarmoqlarida **110,2 %** dan (**28,1 %**) iborat bo'ldi.

yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



9,9 %

YAHM

13,0 %



4,5 %

Sanoat

7,1 %



22,0 %

Qurilish

9,3 %




10,4%

Xizmatlar

15,1 %

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan **106,3** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilish – **109,1** % va sanoat sohalarida – **106,7** % qayd etildi.

yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik **46 270,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – **37 438,9** mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi **53,3** % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – **51,8** %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oshganligi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bogʻliq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

37 438,9

51,8 %

2026- yil

46 270,4

53,3 %

